

**O'ZBEKISTON REPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“O'ZBEK XALQ MUSIQA SAN'ATI VA
IJODIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI,
ZAMONAVIY TARAQQIYOT
TENDENSIYALARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari

2023-yil 23-sentabr

Бухоро – 2023

O‘zbek xalq musiqa san’ati va ijodiyotining tarixiy ildizlari, zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari” // Mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani. Buxoro “Durdong” nashriyoti, 2023.

Anjumanning dasturiy qo‘mitasi

O.X. Xamidov	BuxDU Universitet rektori, rais;
T.H. Rasulov	BuxDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini;
A.R. Zokirov	O‘zMMSI O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
F.N. Nurulloyev	Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i
S.S. Azimov	BuxDU San’atshunoslik fakulteti dekani.
T.I. Rajabov	BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi mudiri.
D.Yu. Ro‘ziyev	Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi professori, a’zo;
B.I. Mustafoyev	Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi dotsenti, a’zo;
O.M. Axmedova	Yu.Rajabiy O‘zMMSI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f.f.n., professor v.b
A.S. Sunatillayev	Yu.Rajabiy O‘zMMSI O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo’lim boshlig‘i.

Anjumanning tashkiliy qo‘mitasi:

1. T.H. Rasulov	BuxDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais;
2. O.I. Karimov	BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi dotsenti;
3. O‘.U. Rashidov	BuxDU Moliya va iqtisodiyot ishlari bo‘yicha prorektor, a’zo;
4. F.N. Nurulloyev	BuxDU Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, a’zo;
5. Sh.B. Nurlibayevna.	Yu.Rajabiy O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasi mudiri
6. T.I. Rajabov	BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi mudiri.
7. R.I. Oripova	Yu.Rajabiy O‘zMMSI O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi mudiri
8. Sh.X. Kamolov	BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi katta o’qituvchisi, a’zo;

Mas’ul muharrir:

B.I. Mustafoyev Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi dotsenti

Taqrizchi:

D.Yu. Ro‘ziyev Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi professori

ko‘lami, vazn-usullari jihatdan biroz chegaralangandek tuyulishi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, doston ijrochisining badihago‘ylik mahorati orqali bunday qadimiylar namunalarning rango-rangligi, ta’sirchan va ifodaviyligi ta’minlanadi. Qashqadaryo-Surxondaryo vohalarida eng keng tarqalgan tarixiy, qahramonlik, ishqiy dostonlardan “Alpomish”, “Avazxon”, “Rustamxon”, “Go‘ro‘g‘li” va boshqalarni tilga olish mumkin.

Ezik xotiraviylik faqat doston matnlaridagi so‘z bilan bog‘liq holatlarni yodda saqlash emas, balki do‘mbira jo‘rligidagi ohanglarni ham birgalikda ilg‘ash, shu asosda doston ijro etish demakdir. Baxshichilik san’atida so‘z va soz birligi muhim o‘rin egallaydi. Baxshi o‘zi ishtirok etmagan epik voqelikni dunyoqarashda shakllantirib, voqealar jarayonida ruhiy holatlarni tasvirlaydi, dramatik rol bajaradi. Shu asosda tinglovchilar auditoriyasini o‘ziga jalb qilib, badihago‘ylik sirlarini namoyish qiladi, usta baxshi bo‘lib shakllanadi.

Baxshilar ijrochiligidagi epik xotiraning ham o‘ziga xos ahamiyati bor. Doston ijrochiligidagi o‘rganilgan barcha an’anaviy usullar, yo‘llar epik bilimning qamrovi bilan belgilanadi. Baxshi ustozidan o‘rgangan doston matnlarini asriy an’analar asosida egallagan bilimi va dunyoqarashda sayqallashtiradi hamda ijro etadi. Qashqadaryo-Surxondaryo baxshichilik maktabi doston ijrochiligidagi epik xotira, bilim kabi qismlar yo‘qolsa, an’anaviy doston kuylash usullari ham so‘nadi yoki baxshining ijro etgan dostoni ijodiy qo‘llanma sifatida o‘sha baxshi repertuari bilan bog‘lanadi. Yoxud dostonlarning ijro jarayoni sustlashib, yangicha talqinlar bilan ommalashadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir hududning o‘ziga xos qadriyat va an’analari mavjud. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchilik maktabi mana necha yillardan beri rivojlanishda davom etib kelmoqda. Voha ahlining tanti va mardligi, yashash tarzi, tabiat bilan chambarchas bog‘liq holda yaratilgan doston ijrochilik an’analari bor. Bu yerga kelgan hech bir inson ularning dostonlaridan, xalq termalaridan tinglamay turib qaytmaydi, qaytolmaydi. Zero, bugungi kunda bu diyorga sayyoohlarni chorlagan eng katta kuch ham baxshi do‘mbirasining sehrli sadosi va dostonlarimizdagi sir-sinoatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: O‘quv qo‘llanma / Mas’ul muh.: fil.f.d., prof. H.Boltaboyev. Toshkent: 2010.
2. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari / Mas’ul muharrir: O‘zR FA akademigi Shoabdurahmonov Sh. – Toshkent: Fan, 1979.
3. Yunusov R. O‘zbek xalq musiqa ijodi. II jild. Toshkent - 2000.
4. Mirzayev T., Turdimov Sh., M.Jo‘rayev., J.Eshonqulov., A.Tilovov. O‘zbek folklori: Darslik / Mas’ul muh. Fil.f.n., dots. O.Madayev. Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2020.
5. Jo‘rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish: O‘quv qo‘llanma / Mas’ul muh: Fil.f.n., dots. O.Axmedova. Toshkent: Barkamol fayz media, 2017.
6. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari: O‘quv qo‘llanma / Mas’ul muh: O‘zb. xizm. ko‘rs. yoshl. murabbiysi S.Yo‘ldosheva. – Toshkent: Fan, 2009.
7. Matyoqubov B. Doston navolari / Mas’ul muharrir: san.f.n., prof. Yunusov R. – Toshkent, 2009.

XALQ QO‘SHIQLARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING MA‘NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Umurova Ma‘rifat Yoshiyevna
Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasи o‘qituvchisi

Jahoning ko‘pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umum davlat ahamiyatga ega bo‘lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi g‘oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning sotsial tuzumiga xizmat qiladi. Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi, qonuniyatları va shu xalqning milliy musiqa

madaniyati, tili, madaniy an'analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasning strukturasi, sistemasi (tizimi) va ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobjiy ta'sir etadi. Jamyatimiz taraqqiyotida ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash bugungi kunda bizning eng ustuvor vazifalarimizdan biri sanaladi. Zeroki, qator aytilgan bu fikrlar zamirida har doimgidek yoshlari turadi, sababi ularning bugungi kundagi olgan ta'lim- tarbiysi nafaqat o'zlar uchun balki yurtimiz taraqqiyoti uchun eng muhim poydevordir. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bejizga "Agar mendan sizni nima qiynaydi" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiysi deb javob beraman"- degan purma'no fikrlari fikrimiz yaqqol dalilidir.

Biz yashab turgan jamiyat taraqqiyotida musiqa va san'atning o'rni beqiyosdir. Har bir millat va elatlarni birlashtiradigan an'analarimizni mustahkamlaydigan ham mana shu hisoblanadi. Har qanday ko'ngilni o'ziga rom eta oladigan, insonlarni qalbiga e兹gulik urug'ini ekip boshqa yomon illatlarga qarshi kurashadigan ham musiqa desak mubolag'a emas.

Aholi ma'naviyatini yuksaltirish, kishilarda, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviy tafakkurni shakllantirish, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davlat siyosati darajasida ko'tarildi. Yangi O'zbekiston sharoitida ham bu an'ana davom etayotganligi davlatimiz tomonidan yaratilayotgan keng imkoniyatlar misolida ko'rishimiz mumkin. Xalqimizning o'tmish an'analarini, milliy urf-odatlari, milliy musiqa san'atining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish, milliy musiqa an'analarini saqlash va rivojlantirish, yosh avlodda san'atga muhabbat tuyg'usini uyg'otish hamda xalqaro ijodiy aloqalarni kengaytirish, tinchlik, do'stlik, o'zaro hamjihatlik, madaniy- ma'naviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish maqsadida yurtimizda keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bu yaratilayotgan ikmoniyatlarning asosiy maqsadi yosh avlodni milliy xalq qo'shiqlari, musiqa va san'at turlariga qiziqishi va qobiliyatini oshirish, jamiyatdagi faolligini oshirish, ularni xalqimiz an'analariga va milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy va ma'rifiy saviyasini har tomonlama oshirish, o'quvchilarning ma'naviy va estetik rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, iste'dodini har tomonlama kamol toptirish, madaniy saviyasini yuksaltirish, milliy va jahon musiqasi, tasviriy san'atning yuksak namunalaridan va o'zbek xalqining mumtoz musiqa merosi durdonalaridan bahramand bo'lishi uchun zarur sharoitlar yaratish, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida o'quvchilarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish, umumiyl musiqa, xoreografiya, teatr san'ati, tasviriy va amaliy san'at yo'naliishlari bo'yicha bilimlarning boshlang'ich asoslarini o'rgatish orqali ularni musiqa va san'at olamiga jalb etish ko'zda tutilgan. Shuningdek, milliy musiqa san'atimiz va xalq qo'shiqlari asoslarini qayta tiklash va rivojlantirish maqsadida jamiyat hayotining barcha yo'naliishlarda bo'lganidek, uzlucksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan musiqa ta'limi mazmuni milliy musiqiy meros to'grisidagi ma'lumotlar va asarlar bilan boyitildi. Bu holat ta'lim tizimining eng muhim shakllantiruvchi bosqichi bo'lgan umumiy o'rta talim maktablari "musiqa madaniyati" fani uchun ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiq etilgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi, asosda yaratilgan darsliklar misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilish borasida keng imkoniyatlar qadimdanoq musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga jalb qilgan. Ular musiqa san'atining insonlarni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlarini aniqlashga urunishgan. Darhaqiqat jahon fani ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz komil insonni tarbiyalashda musiqaning o'rnini chuqur anglab, shaxs kamolotidagi ahamyatini o'z asarlarida, pedagogik qarashlarida tadqiq qilib bizga beqiyos manbalar qoldirganlar. Buyuk mutaffakirlar Al Forobi, Abu ali Ibn Sino, Abdulqodir Marog'iy, Sharafiddin ali Yazdiy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Sadiy Sherazi, Abdurahmon Jomiy, Kavkabi, Darveshali Changiy, Komil Xorazmiy, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur kabi allomalarining qator asarlarida keltirilgan musiqaga oid ma'lumotlar bugungi kunda o'z ilmiy, nazariy hamda tarbiyaviy jihatdan yosh avlodni tarbiyalash jarayonida eng dolzarb va eng kerakli maba ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan eng avvalo musiqaga oilaviy muhiti yiroq bo‘lgan bolalarni qiziqtish uchun qiziqqan bolalarni yanada dunyoqarashini oshirish uchun ham o‘rtta ta‘lim mакtablarida, mакtabgacha ta‘lim muassalarida san‘at ustalari bilan ijodiy uchrashuvlar ko‘ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini kengaytirish,o‘quvchi yoshlarning qiziqishini o‘stirib,bo‘sh vaqtlarini behuda sarflamasliklarini oldini olishimiz mumkin. Bejizga davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan: “Besh muhim tashabbus”ni joriy qilmaganlar. Aynan shu besh tashabbusimizning birinchi yo‘nalishi musiqa va san‘atga bag‘ishlangan. Mana shundan ham ko‘rinib turibdiki musiqaning yosh avlod tarbiyasida o‘rni nihoyatda beqiyos.

Musiqa tarbiyasi shaxs sifatida shakllanayotgan bolalarning qalbida milliy ruhni kamol toptirish, ma‘naviy va axloqiy madaniyatni musiqiy didni shakllantirish, musiqiy tasavvurlarini yanada boyitish hamda ularda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularini, tashabbuskorlik qobilyatlarini kamol toptirishga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbek xalqi va uning madaniy-ma’rifiy taraqqiyoti asrlar davomida rivojlandi, tarbiya g‘oyalari turli davrlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini o‘zida mujassamlashtirdi. Xalqimiz yaratgan ana shu ma’rifiy fikr va g‘oyalilar, ta‘lim-tarbiyaga oid boy meros minglab avlodlarni umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalaydi. Demak, ajdodlarimiz merosi bo‘lgan xalq qo‘shiqlari xalq donishmandligi va odobnomasining nodir sohasi deyilishi bejiz emas.

Xalq qo‘shiqlari asrlar davomida avlod-ajdodlarimizning axloqiy, ma’rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o‘rin tutgan. Chunonchi, xalq o‘zining ma‘naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik qarashlari, falsafiy-axloqiy tushunchalari, hayotiy, ta‘lim-tarbiyaviy xulosalarini xalq qo‘shiqlarida ham aks ettirgan. Xalq qo‘shiqlarining muhim yo‘nalishi ma‘naviy-axloqiy fazilatlar o‘quvchilarda ma‘naviy-axloqoy sifatlarni shakllantirish, muhim xususiyatlaridan biri esa millatga xos bo‘lgan xususiyatlarning saqlanishini ta‘minlash sanaladi. O‘zbek xalq, qo‘shiqlarining qadimiy tarixini, o‘ziga xos xususiyatlari va turlarini o‘rganishda ulug tilshunos olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari muhim o‘rin tutadi. Mahmud Qoshg‘ariy uzoq yillar el kezib turkiy tillar xususiyatini o‘rganar ekan, ko‘plab xalq, maqollari va qo‘shiqlarini to‘plagan¹.

Shuni qayd etish kerakki, xalq qo‘shiqlaridagi qarashlar, allomalarimiz tomonidan ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o‘quvchilarning insoniy fazilatlari va ma‘naviy axloqiy sifatlarni shakllantirish, ularda milliy tarbiya va musiqa, kuy, qo‘shiqlarga bo‘lgan intilishn, tayyorgarlik hozirgi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Insoniyat jamiyatining barcha bosqichlarida barkamol shaxsni voyaga yetkazish dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Xalqimizning milliy qo‘shiqlarida bu borada juda boy ma‘naviy - ma’rifiy meros mavjudligini ko‘rsatadi.

Demak, avlodni tarbiyalashda, ularda bo‘lg‘usi ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda xalqimiz yaratgan, ijod qilgan, kuylagan qo‘shiqlarning o‘rni, roli benihoyat katta.

Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e’tiborga olib ta‘lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunga xalq og‘zaki ijodi, pedagogikasi, mutafakkir, ma’rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga axloq-odobga doir g‘oyalarni o‘rgatib komil insonni ishlari amalga oshmoqda.”Keljak bugundan boshlanadi” deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko‘rsatuvchi ruhiy va ma‘naviy jarayonning mezonini belgilaydi. Bu borada ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish ta‘limni ilg‘or tajribalar asosida boyitib borish, yangi pedagogic tajribalar asosida olib boorish ayniqsa muhimdir. Xalq musiqasi og‘zaki ijodiyoti, an‘analari, urf-odatlari asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish ularni ko‘proq o‘z millatini sevishga g‘ururlanishga shorqano g‘oya va ta‘limotlarni o‘rganib ularni keljakka tadbiq etishga zamin yaratiladi. Mustaqil Respublikamizda milliy madaniyatimizni o‘ziga xosligini tiklash, umumta‘lim mакtablarida

o‘quvchilarni badiiy, axloqiy tarbiyalash va kamol toptirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Ma’naviy yetuk millat qadriyatlarini to‘g‘ri baholashga va uni yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Demak, jamiyat ma’naviyatining o‘sishi qadriyatlardan keng foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratib, qadriyatlarni yanada rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Qadriyatlar ta’rifidan kelib chiqib, umuminsoniy qadriyatlarni quyidagicha ta’riflash mumkin. Umuminsoniy qadriyatlар-millat uchun muhim axamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq holdagi qadriyat shaklidir. Umuminsoniy qadriyatlар millatning tarixini yashash tarzi, ma’naviyati, madaniyati orqali namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida umuminsoniy qadriyatlар ijtimoiy-tarixiy hodisani ifodalaydi. Ma’naviyat milliy urf-odatlar, tarbiya an’analari, axloq-odob aqidalar, e’tiqod, madaniy-ma’rifiy jarayonlar majmuasidir.

Xalq qo‘shiqlari-bu falsafiy va ijtimoiy tushunchalar bo‘lib, insonni o‘rab olgan atrof-muhitni amaliy jihatdan o‘zlashtirish natijasida vujudga keladi. Ta’lim tarbiya jarayonida xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish ijtimoiy tarixiy hodisa sanaladi. Alisher Navoiy ham xalq qo‘shiqlari, turlari haqida ma’lumot berar ekan, surud, ayolgu, lahn va turki so‘zlarining qo‘shiq ma’nosini bildirganini asoslaydi¹.

Bugungi yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashdan maqsad, ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish bilan birga jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy salohiyatini ko‘tarishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi ta’lim-tarbiyanı milliy shakllantirishga va rivojlantirishga keng yo‘l ochib berdi. Milliy tarbiya nazariyasi o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, adabiyot, etika, estetika, pedagogika, psixologiya, musiqa kabi fanlardan foydalanadi. Milliy tarbiya hayotning moxiyati ichki aloqa va munosabatlarini aks ettiradi. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo‘lgan yoshlar emas, ijodkor, iste’dodi bilan ajralib turuvchi o‘quvchilarni tarbiyalash zamon talabidir. Maktabda ta’lim olish davrida milliy tarbiya o‘quvchilarni turli qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tabiatga, jamiyatga qarash tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch quvvatlari yanada mustahkamlanadi, juga katta e’tibor bergen. O‘rta Osiyolik mashhur musiqa chilar orasidagi olim bolaning Yoshi ulg‘aygan sari bu faoliyat tobora ko‘proq mustaqil xususiyatga ega bo‘lib boraveradi. Tabiat va jamiyat turmushda uchraydigan hodisa va sharoitlarni tushunishga ham idrok etib o‘z atrofidagilarga munosabatda bo‘lishiga ko‘nikib boradi.

Musiqa madaniyati darslarida umuminsoniy qadriyatlар o‘quvchilarni dunyoqarashi, musiqiy didini rivojlantiradi.

1. Umuminsoniy qadriyatlар o‘quvchilarda milliy kuy-qo‘shiqlarga ixlos uyg‘otadi. Ularni musiqiy qobiliyatlarini ritm tiyg‘usini o‘stirib, musiqiy o‘quvi va didini o‘stiradi.

2. O‘quvchilarda milliy merosimizga, ommaviy kuy-qo‘shiqlarga, xalq aytimlariga va u orqali Vatanga muhabbat hissini tarbiyalaydi.

3. Alla, lapar, terma qo‘shiqlar vositasida o‘quvchilarda badiiy ijodkorlik qobiliyatları o‘sib boradi.

Musiqa ohanglari lad va ritm tiyg‘usi usullari asosida o‘rgatiladi. Musiqa ta’limining milliy asosini tarkib toptirishda pianino cholg‘u asbob bilan birgalikda o‘zbek milliy cholg‘u asboblaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati. Toshkent G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 1987 yil
2. Karamatov F.M. “O‘zbek xalq musiqa merosi” XXasrda I-kitob .Toshkent G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1978 yil
3. Komil Ochil. Qaldirg‘ochni ko‘ndirgan qo‘shiq . “Zarafshon” Samarqand 1993
4. Amonullayev “Darslikka xalq merosini o‘rganish”. Boshlang‘ich ta’lim 1993
5. Sarimsoqov B.”O‘zbek merosi va folklori. Toshkent “Fan” 1986 yil
6. Mirzayev T. va boshqalar. O‘zbek folklor ocherklari . Toshkent “Fan” 1998 yil

7. Абдуллаев К. Ф. Особенности воспитания и образования у зороастрийцев //Physical, mathematical and chemical sciences: theoretical trends and applied studies/education as the basis of the humanity evolution in conditions of the information environment of the society domination. – 2013. – С. 169-172.
8. The role of the creative heritage of eastern thinkers in the formation of the spiritual and moral outlook and musical perception of young people Umurova Marifat Yoshiyevna 2021/4/23 102-104

QOBIZ SAZ ÁSPABI HAQQINDA AÑIZ ÁPSANALAR

Ayapov Salamat Baxiyevich

erkin izleniwshi

Nókis mámlekетlik pedagogikaliq instituti

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada qoraqalpoq jirovchilik san'ati, jirovlarning cholǵu asbobi bólgan qóbz, uning yasalishi va afsonalari haqida sóz yuritiladi. Bundan tashqari olimlarning Qórqit ota va qóbz haqidagi aytgan fikrlari va tadqiqotchilarning xalq oǵzidan yozib olgan manbalari haqida atroflicha ma'lumot berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассказывается об искусстве каракалпакского ломбарда, гобузе, музыкальном инструменте пешек, его изготовлении и легендах. Кроме того, даны подробные сведения о мнениях ученых о Корките-отце и Гобузе и источниках, записанных исследователями из уст народа.

SUMMARY

This article talks about the art of karakalpak pawning, qobuz, a musical instrument of pawns, its making and legends. In addition, detailed information is given about the opinions of scientists about Qorqit father and Qobuz and the sources recorded by researchers from the mouths of the people.

Tayanch sózlar: qóbz, jirov, jirovchilik maktabi, doston, maqom, adabiy meros, urf-odat

Ключевые слова: кобуз, жиров, жиров школа, эпос, пословица, литературное наследие, традиция

Key words: kobiz, fat, fat school, epic, proverb, literary heritage, tradition

Qaraqalpaq jirawlarınıń shertip atqaratuǵın saz áspabi «Qobız» ol eń eski saz áspabi. Qaraqalpaq jirawlarında bul haqqında ańızlar saqlanǵan. Esemurat jıraw menen Qıyas jıraw bılıy deydi: «Qobızdıń piri Qorqıt ata hám Diywanayı buriq dep esitemiz. Bizlerden burińgi ótken jirawlar bılıy dep ápsana qılataǵın edi. Qorqıt ata ağashtan qobız islep, saz shertiwdi árman etipti. Kóp ağashlardı jonıp hálek bolsa da islegen qobızınan nátiyje shıǵara almaptı. Qorqıt atanıń qobız jonıp otırǵanın shaytanlar kórip, Qorqıt atadan qobızıńdi kórsət dep sorasa, Qorqıt ata onı shaytanlardan jasırıptı. Onnan keyin Qorqıt ata toǵaydan shıǵıp ketetuǵın kisige quşap jasırınıp barıp, ekinshi joldan buqqışlap barıp, shaytanlardıń sózin tińlaptı. Shaytanlar Qorqıt ata tuwralı bılıy dep sóz etip otır eken: “Qorqıt ata júdá ájayıp isti baslap aqırına jetkere almaptı. Egerde toǵaydaǵı dońız súykenip quwraǵan jıgildik jiýdeniń ağashınan qobızdı jonsa, onnan tostaǵan shıǵarsa, onıń tostaǵanın baqırawıq tuyeniń bas terisi menen qaplasa, oǵan kisinewik attıń quyriǵınan alıp qıl taqsa, qumlaqta, tawda ósetuǵın sasiq quwraydiń shiresinen jaqsa, qıldıń astınan kóterip turatuǵın góne qabaqtan jonıp tiyek salsa, júdá shıqqısh áspap bolǵan bolar edi”.

Qorqıt ata shaytanlardıń bul sózlerin esitip órra izine qaytip solardıń aytqanınday qılıp qobızın islegen eken, túrli namaǵa shertiletuǵın saz áspabi, júdá jaqsı qobız bolıptı. Qorqıt ata qobızdı hár túli namaǵa salıp shertip júre beripti.

T.D.Muxamedov, Samandarova Madina G‘ayrat qizi. BAXSHICHILIK SAN’ATI – UMUMINSONIY QADRIYAT.....	62
Hayitov Zafar Soatovich. Qashqadaryo-Surxondaryo doston ijrochilik an’analari	64
Umurova Ma‘rifat Yoshiyevna. Xalq qo‘sishlari vositasida o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	67
Ayapov Salamat Baxiyevich. Qobiz saz áspabi haqqinda ańız ápsanalar.....	71
Samiyeva Mehriniso Azimovna. Musiqiy ta’lim jarayonida mahalliy “Buxoro ijrochilik uslubi”ni o‘rgatishning o‘ziga xosligi	73
Д.Н.Обидов. МУСИҚИЙ МЕРОС ВА ЖОНЛИ УРФ-ОДАТЛАР	75
Abdumannatova Aziza Abdumajit qizi. BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARIDA XALQARO MAQOM, BAXSHICHILIK, FOLKLOR SAN’ATI VOSITASIDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH	77
Ozoda Latipova, Karimov Saxob. MUSIQA MADANIYATI TARIXI XALQIMIZ O‘TMISH TARIXINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA.....	80
Rahimov Oybek Takilovich. Rubobda ijro etish mahoratini rivojlantirish usullari.....	83

3-SHO‘BA. OLIY VA UMUMTA’LIM TIZIMIDA MUSIQA MADANIYATI TA’LIMINING TARAQQIYOT TENDENSIYALARI	85
Ro‘ziyev D.Yu. Musiqa o‘qituvchisining muloqot san’ati, tashkilotchilik qobiliyati va tadqiqot ko‘nikmalarini egallashi	85
E.K.Djalilov. XALQ QO‘SHIQLARI ORQALI O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH.....	88
B. Mustafoev. MAKTABDA MUSIQIY-PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL ETISH VA SAMARALI BOSHQARISHDA FAN O‘QITUVCHISINING FAOLIYATI	90
Sh.N.Omanqulova. BO‘LAJAK MUSIQA TA’LIMI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI CHOLG‘U IJROCHILIGI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH.....	92
G.M.Davronova. Musiqiy ta’lim-tarbiyasi vositasida shaxs ma‘naviy salohiyatini shakllantirish va takomillashtirishning ijtimoiy mexanizmlari	94
Nurullayev F.G. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING MUSIQIY FAOLIYATI97 Orordova Ra’no Ibrohimovna. O‘QUV-TARBIYA JARAYONIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR USTUVORLIGINING MOHIYATI.....	100
Ходжаев Б.К., Ходжаев Б.Б. Мусиқа маданияти таълими воситасида ўқувчиларда ватан ифтихори туйғусини шакллантиришнинг айрим йўллари	104
I. F.Qayumov. YOSHLAR MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQANING ADABIYOT BILAN BOG‘LIQLIGI	106
Ramazonova O‘g‘iloy Xolmurodovna. Musiqiy-pedagogik jarayon va ta’lim-tarbiya masalalari	107
Mirshayev Ulug‘bek Muzafarovich. MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISHDA TALABALARING KREATIV YONDASHUVI	109
VYST CHOLG‘U IJROCHILIGI MASHG‘ULOTLARIDA TA’LIM VA TARBIYANING MUSHTARAKLIGI_Hamroqulov N. B.....	112
Hasanov Halim Ravshanovich. Musiqa madaniyati darslarini o‘qitishda fanlararo aloqadorlik (“Ona tilim” qo‘sish‘ini o‘rgatish misolida).....	114
Matyakubova Umida Gayibayevna, Matyakubov Ergash G`ayibayevich. “O‘QUVCHILARDA MUSIQA DARSLARI VOSITASIDA AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI”	115
Imomnazarova Aziza Rustamovna, Hamrayeva Umida Shonazarovna. MAKTAB MUSIQA TA’LIMIDA FORTEPIANO CHALISHGA O‘RGANISH USLUBLARI	117
Musurmonova Durdona Shukur qizi, Hamrayeva Umida Shonazarovna. FORTEPIANO SINFIDA MUSIQA ASARI USIDA ISHLASHNING ASAOSIY VAZIFALARI.....	119
Hamrayeva Umida Shonazarovna. FORTEPIANO MASHG‘ULOTLARIDA ANSAMBLLIK USTIDA ISHLASH USLUBLARI.....	121